

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA “CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS) TILI”  
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO‘NALISHLAR  
(KO‘ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR  
(ta‘lim yo‘nalishlarga mos fan bo‘yicha)**

**Jizzax – 2023**

Dastur Jizzax davlat pedagogika unversiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_dagi “ \_\_\_\_ ” sonli majlis bayoni.

Ushbu dastur O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 2023- yil “27” iyundagi №6 sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan Dastur asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:** JDPU Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası mudiri, dotsent  
A.Jabborova

JDPU Ingliz tili amaliy kursi kafedrası dotsenti O.Xolmurodova

JDPU Fakultetlararo xorijiy til kafedrası dotsenti T.Kavilova

**Taqrizchilar:** O'zMU "Ingliz filologiyasi" kafedrası mudiri,  
f.f.d., profv.b. Djumabaeva J.

O'zMU "Qiyosiy tilshunoslik" kafedrası mudiri

f.f.n., dots. Sadullaeva N.

## **KIRISH**

Ushbu dastur ingliz, nemis va fransuz tillaridan imtihon topshiradigan ko'zi o'z abiturientlarga mo'ljallangan bo'lib, unda abiturientlarning chet tillarini tinglab tushunish, og'zaki nutq ko'nikmasi, matnda ishlatilgan so'z va iboralarni tarjima qila olish qobiliyati aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abiturientlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o'rin tutadi.

### **Fanning maqsadi va vazifasi**

Mazkur dasturning maqsadi ko'zi o'z abiturientlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi ko'zi o'z abiturientlarning chet tillarida eshitish ko'nikmalarini aniqlash; – abiturientning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish; – original matnni tushunish darajasini aniqlash; – berilgan matnlar yuzasidan o'zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish; og'zaki nutq ko'nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash; – abiturientning og'zaki suhbatga kirishish kompetensiyalarni aniqlashdan iborat.

### **Abiturientning bilimiga qo'yiladigan talablar**

**Fonetika.** Abiturientlarni o'z fikrini erkin, ifodali va to'g'ri bayon etishlari uchun fonetik qoidalarga rioya qilishi muhim hisoblanadi. Bunda asosan ular so'zlarning to'g'ri talaffuz qilishi, ohangga ahamiyat bergan holda gapirishi va urg'ularning to'g'ri qo'llanilishiga ahamiyat berish kerak.

**Grammatika,** Chet tilidagi nutqni to'g'ri bayon qilishda asosan gaplarda so'z tartibi, gaplarning maqsadiga ko'ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Bundan tashqari abiturientlar quyidagi grammatik xodisalarni bilishi kerak:

**Mustaqil so'z turkumlari:** Ot. Turdosh va atoqli hamda ularning turlari, otlarda son kategoriyasi, otlarning ko'plik yasalish formalari va ularning turlanishi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Sifat.** Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanishi.

**Son.** Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo'llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmosh va ularning turlari. Olmoshlarning kelishiklarda qo'llanilishi va ularning gapdagi sintaktik vazifasi.

Fe'l. O'timli va o'timsiz fe'llarg Fe'llaming yasalishi. Fe'llaming tuşlanishi. Fe'l nisbatlari. Mayi kategoriyasi. Fe'l zamonlari.

Ravish va ulaming turlari, yasalishi.

Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va ularning ma'no va tuzilish jihatdan turlari.

Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar.

Sintaksis. Gap. Gap bo'laklari. Bog'lovchilar va ularning turlari. Uyushiq bo'lakli gaplar. Ajratilgan bo'laklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari. Qo'shma gap. Ergash gapli qo'shma gap va ularning turlari.

### **Og'zaki suhbatning taxminiy mavzulari:**

1.O'zbekiston. O'zbekiston tarixi, aholisi, maydoni, chegarasi, poytaxti, tarixiy shaharlari, milliy bayramlari, O'zbekistonning Chet davlatlar bilan aloqasi.

2.Tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, aholisi, geografik joylashishi, sanoati, siyosiy tizimi, yirik shaxarlari, milliy bayramlari, buyuk shaxslari.

3. Yil fasilari.

4. Tarjimai holi, mening oilam, mening ish kunim, mening do'stim, mening ona shahrim, mening sevimli yozuvchim (shoirim), men tanlagan kasb.

5. Mening dam olish kunim, teatr, kino, kutubxonaga tashrif, sport mening hayotimda.

### **"CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILI" FANIDAN IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZOM**

Ko'zi Ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi Ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtdan nazariy savol kiritiladi.

#### **Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:**

1. Abiturientning javobi "5-baho" (a'lo)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;

-ijodiy fikrlay olsa;

-grammatikani chuqur bilsa;

-Olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;

-erkin suhbat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lsa.

2. Abiturientning javobi "4-baho" (yaxshi) ga baholanishi uchun: nazariy bilimlarga ega bo'lsa;

-ijodiy fikrlay olsa;

-grammatikani bilsa;

-Olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;

-erkin suhbat olib borishda biroz qiynalsa.

3. Abiturientning javobi "3-baho" (qoniqarli)ga baholanishi uchun: - nazariy bilimlarga ega bo'lsa;

-nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga qiynalsa;

-fikrini to'liq bayon qila olmasa;

-savollarga to'liqjavob bera olmasa;

-grammatikani to'liq bilmasa.

4. Abiturientning javobi "2-baho" (qoniqarsiz)ga baholanishi uchun:

-nazariy bilimga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmasa;

-tarjima qila olmasa;

-savollarga javob bera olmasa;

-grammatikani bilmasa;

-erkin muloqotga kirisha olmasa.

### **Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 O'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Chef tili fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lgan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Chef tili fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norizo abituriენტlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriენტ ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriენტning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma yuz abituriენტning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

G'.Qodirov